

5-Iyun, 2025-yil

**GILAMCHILIK TARIXI VA UNING TO‘QILISH SAN’ATI  
(GILAMDO‘ZLIK)**

**Batirbaeva Sh.S, dots**

**Nazarova D.T**

**prof.S.A.Xamraeva**

**talaba Jo’raqulova S.A**

**Solijonov S.Z.**

*Toshkent To’qimachilik va engil sanoat institut*

**Аннотация:** *Ushbu maqolada gilamchilik tarixi o’rganilgan. Gilam to’qish va uni toqishgacha bo’lgan jarayonlar tahlil qilingan.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история ковроделия. Анализируются процессы ковроткачества и ткачества.

**Annotation:** This article discusses the history of carpet weaving. The processes of carpet weaving and weaving are analyzed.

Gilam to’qish san’ati ham xalqimiz orasida keng tarqalgan san’at turlari hisoblanadi. U ko’p asrlik milliy an’ana va uzoq tarixga ega. Uning tarixiy ahamiyatini dunyo xalqlari muzeylarida saqlanib kelinmoqda. Barcha xalqlarda gilamdo‘zlik san’ati qadim zamonlardan beri rivojlanib kelganligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlab turadi. Jahonning turli mamlakatlaridagi qadimiy arxeologik yodgorliklardan bilishimiz mumkinki zaminimizda yaratilgan gilamlarning namunalari ko‘plab davlatlarning yetakchi muzeylarida saqlanib kelinmoqda. Bundan bilishimiz mumkinki, o’zbek gilamdo‘zligining noyob namunalari saqlanayotganini, milliy hunarmandchilikning ushbu turiga dunyo miqiyosida e’tibor va qiziqish katta ekanidan dalolatdir.

O’zbek gilam mahsulotlarini to’g’risida umumiy tessavurga ega bo’masdan turib, gilamchilik soxasini yoritib bo’lmaydi. Xususan gilam bir necha ming yillik tarixga ega bo’lib, milliy hunarmandchilik san’atining noyob namunasi sifatida shakllanib kelmoqda. Turli nasabda qabilalar gilam to’qish bilan shug’ullanganlar. Bu gilamlarda qabilalarning o’ziga xos naqshlari ishlatilgan, bu esa qabilalarning ramziy belgilarini bildirib, keyinchalik xo’jalik zaruriyati uchun ishlatilgan. Surxon vohasi o’zining qadimiy va takrorlanmas o’ziga xos etnografik o’lka ekanligi bilan ajralib turadi. Buni birligina to’qimachilik sanoati uy jihozlar namat, kigiz va gilam mahsulotlari hamda ularning tarixi misolida ko’rish mumkin. Gilamning dastlabki namunasi hayvon junlaridan tayyorlangan. Uni to’qish uchun xonakilashtirilgan hayvonlar; qo’y, echki, tuya junlari olib yuvilgan. So’ng maxsus moslama jun taroqlarda tozalangan. Tayyor bo’lgan jun mahsulotlaridan pishiq ip tayyorlangan. Turli xil o’simliklardan olingan tabiiy ranglar bilan bo’yalgan, keyin xonodon sohiblari tomonidan to’qilgan

Ma’lumotlarga qaraganda eng qadimgi (eramizdan avvalgi 5 asrlarga mansub) qo’lda to’qilgan gilamlardan biri 1949 yilda arxeologik olim S.N.Rudenko tomonidan sobiq ittifoq hududining Pazariq vohasidan 5 km uzoqlikda Oltoy tog‘i muzliklaridan topilgan.

5-Iyun, 2025-yil

Gilamning 2500 yil muzliklarda qolib ketishiga qaramay, deyarli shikastlanmay saqlanganligi qadimgi gilamdo‘zlarning ulkan mahoratidan dalolat beradi. Hozirda gilam davlat ermitajida saqlanib kelinmoqda. Saqlanib qolgan materiallar bu san’atning ayrim turlari, ularning rivojlanishni an’anasiyu va uslubiy xususiyatlarini belgilash imkonini beradi.

XI-XII asrlarda O‘rta Osiyoda shu jumladan, O‘zbekiston hududida gilam to‘qish san’ati juda rivojlangan. XIV asrning 2-yarmida O‘rta Osiyoda gilamchilik san’ati rivojlanib ketdi.

Turli xorijiy mamlakatlardan kelgan ustalar gilam to‘qish ustaxonalarida ishlaganlar. Avvalari gilam to‘qish uskunalari yerda yani yotiq xolda va anchagina soddarоq ko‘rinishda bo‘lgan, keyinchalik esa dastgohlar mukammalashdi va to‘quvchi qizlar yonma-yon o‘tirib birgalikda birdaniga to‘qiydigan keng g‘altakli xillari yasaldi. X-XIII asrlarga kelib naqsh shakillari yanada rivojlanib bordi va xar xil turdagи gullar va xayvonlar shakli chizilib gilam chetlari xoshiyalar naqshlar shaklida gilamlarga yanada ko‘rk bag‘ishlay boshlagan. XIX asrning oxirigacha gilam to‘qishda o‘simliklardan tayेrlangan bo‘yoqlar ishlatilgan keyinchalik anilin bo‘yoqlaridan foydalanila boshlandi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalq amaliy san’ati taraqqiyoti qarama-qarshiliklarga duch keldi. Bu davrda yana uslubiy yangiliklar-to‘qimachilik, kashtachilik, gilamchilikda chidamsiz va o‘ta yorqin anilin bo‘yoqlarini ishlatilishi avj oldi. Anilin bo‘yoqlarining keltirilishi kashtachilik va gilamchilikka o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. XIX asrning eng yaxshi an’analari patli gilam buyumlar va an’anaviy xandasiy gulli paloslar ishlab chiqarildi. Ilk bor portretli gilam (usta G‘.Abdullaev) yaratildi.

60-70 yillarning oxirida gilamchilik va palos to‘qish, kigizchilik rivojlanib bordi. O‘zbekistonning turli tumanlarida gilamchilik korxonalari tashkil topdi va xonardonlarda ishlab chiqarish bilan chegaralangan gilamchilikning mahalliy axoli turmush tarzini yaxshilanishaga olib keldi. Xorazmda gilamchilik bilan turkman va qoraqalpoqlar shug‘ullangan. Turkman va qoraqalpoq to‘quvchi xotin-qizlarning ishlari o‘ziga xos bo‘lib, ular ayollar kiyimlari-bosh kiyimi, yopinchiq, to‘nlarini bezagan. Kashta gullarida o‘sha naqsh mavzulari yetakchilik qiladi. Rasmlari rang-barang, biroq tuslari cheklangan, nozik va nafosati bilan ajralib turadi. Gilamlar to‘qilish uslubi, naqsh bezaklari, bo‘yalish texnikasi va sifat darajasiga qarab bir-biridan tubdan farqlanib turadi. Gilamlarning to‘qima, tikma va bosma xillari mavjud bo‘lib gilamlar kalta patli 3-7 mm va uzun patli 8-17 mm qilib to‘qiladi. Gilamlar to‘qilgan joyi ёki to‘qilgan korxonaning nomi bilan yuritiladi. Masalan Turkman gilamlari yovmut, tekin, beshir gilamlar deb yuritiladi. Turkman gilamlari geometrik naqshli bo‘ladi. Shu kabi turli xil gilamlar to‘qilishi va gullari rangi va shakliga qarb kaerda to‘qilgan kim tomonidan to‘qilganligini bilib olsa bo‘ladi.

Texnika xavfsizligi qoidalari. Gilamchilikda ham barcha kasblar qatori mehnat xavfsizligi qoidalariга rioya qilish kerak. Mashg‘ulot xonasida to‘quv dastgohlari yog‘ochdan ishlanganligi uchun yong‘in xavfsizligiga alohida e’tibor berilishi shart. Barcha elektr jihozlarining soz holatda ekanligini tekshirib turish zarur. Mashg‘ulot xonasi imkon qadar yorug‘ va keng, o‘t o‘chirish jihozlari bilan ta’minlangan va ishlash jarayonida qulayliklar shart sharoitlar yaratilgan bo‘lishi lozim. Har bir ishchi xodimni texnik haysizlik

5-Iyun, 2025-yil

bilan tanishib chiqishi zarur. Gilam to‘qish jarayonida asbob uskunalarni va texnik xavsizlikni ham o‘rni kattadir. Gilam to‘qishda ishlatiladigan asosiy asbob uskunalar:

-pichoq-asosan patli gilamlar to‘qishda har bir patni uzunligini 0,8 – 8mm gacha qoldirib, kalta patli bo‘lsa, 3 - 7mm gacha qoldirib, qirqish uchun ishlatiladi.

-qaychi-gilam to‘qishda gilam patlarini bostirma ip va kvadrat iplarni`

-to‘qmoq-(taroq) to‘qmoqning taroqli tomoni bilan tanda ipini tez taraganda ma’lum kuch bilan urib chiqiladi.

-o‘lchash asbobi-gilam to‘qish jaraenida to‘qilish tekisligini aniqlash uchun ishlatiladi. Dastgohdan tushirilgandan so‘ng gilamning tekisligi yana bir bor tekshiriladi.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Калугина Ю.Н. Художественная обработка материалов (Текстиль): методические рекомендации для преподавательей и студентов педагогических колледжей и училищ. – М.: Министерство общего и профессионального образования РФ; Научно-методический центр СПО, 1999. – 65 с.
2. Bulatov S. O’zbek xalq amaliy bezak sa’nati. –T. Mehnat 1991 y. 384 б.
3. Siddiqov P.S., N.B.Yusupova. National avrova fabrics and peculiar production technologies // Proceedings of the uzbek-japan symposium on ecotechnologies Innovation for sustainability-harmonizing science, technology and economic development with human and natural environment “Proceedings of the uzbek-japan symposium on ekotechnologies” журнал. Ташкент. Изд-во “Илмий техника ахбороти-press”, 2016. –С. 87-92.
4. Сиддиков П.С. Определение аврбандного процесса при обвязке нитей либитов. Изд-во: Текстильная промышленность. №1(691) 2012.
5. Панфилова Т.Ф. Ручное ткачество: продолжение традиций // Школа и производство.-2005.